

DATA JURNALISTIKADA OCHIQ MA'LUMOTLARNING ROLI

Adilbek Polatbayevich Latipov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistika yo'nalishi

2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Ochiq ma'lumotlar bugungi kun jurnalistlari uchun asosiy rasmiy ma'lumotlar manbasi bo'lib qolmoqda. Jurnalist xolis axborot uzatishda ochiq ma'lumotlardan foydalanadi. Ochiq ma'lumotlardan esa har bir inson bemamol foydalana olishi kerak. Mazkur maqolada data jurnalistikada ochiq ma'lumotlarning roli va O'zbekistonning bu boradagi qadamlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ochiq ma'lumot, open data, data.gov, data.egov.uz, data jurnalistika, ma'lumotlarni filtrlash, statistika.

Data jurnalistika o'ziga xos format bo'lib, uning asosini raqamlar tashkil etadi. U faktlarga asoslangan va ma'lumotlar bilan tasdiqlangan jurnalistika materiallarni tayyorlashni nazarda tutadi va turli bosqichlarni birlashtiradi.

Uning zamonaviy axborot jamiyatidagi ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi, chunki u o'quvchilarga dunyoda sodir bo'layotgan murakkab hodisalar va voqealarni yanada yaxshiroq, oson tushunishga, anglashga yordam beradi. Data jurnalistika bu jurnalistika va ma'lumotlar tahlilining sintezi bo'lib, shunchaki matn emas, raqamlar, grafiklar va statistik ma'lumotlar asosida hikoya qilish imkonini beradi.

Jurnalistikada ochiq ma'lumotlardan foydalanish bilimlar chegaralarini kengaytirishga va jamiyatda shaffoflikni ta'minlashga yordam beradigan muhim axborot manbai hisoblanadi. Ochiq ma'lumotlar - bu hech qanday mualliflik huquqi cheklovlari va to'lovlarsiz bepul foydalanish, qayta ishlash va tarqatish uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlar. Ular statistika, ilmiy tadqiqot kabi keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

“Wikipedia”da ochiq ma'lumotlarga shunday ta'rif berilgan: ochiq foydalanish va tahrir qilish mumkin bo'lgan, ekspluatatsiya qilinadigan va har qanday maqsadda har kim ulasha oladigan ma'lumotlar[1].

O‘zbekiston Respublikasining ochiq ma’lumotlar portalida esa unga yanada kengroq tushuncha beriladi: “Ochiq ma’lumotlar - qonun hujjatlari bilan cheklanmagan, mualliflik huquqi, patent va boshqa turdagi cheklov mexanizmlar ko‘magida himoya etilmagan mashinada o‘qiladigan formatdagi muayyan turdagi ma’lumotlardir. Davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno. Ochiq ma’lumotlarni bugungi kundagi ahamiyati shundan iboratki, ochiq ma’lumotlar yordamida dasturchilar turli mobil ilovalar, dasturiy ta’minotlar va veb-saytlar yaratish imkoniga ega bo‘ladilar”[2].

Ochiq ma’lumotlar g‘oyasi qadimiy ildizlarga ega, ammo Internet va raqamli texnologiyalarning paydo bo‘lishi bilan konsepsiya ayniqsa dolzarb bo‘lib qoldi.

Ayrim manbalarda qayd etilishicha, “Ochiq ma’lumotlari ilmi” 1957-58 yillarda, Sputnik I uchirilgan Xalqaro geofizika yilida boshlangan[3]. Ya’ni 1940-yillarda amerikalik sotsiolog Robert King Merton tomonidan ommalashtirilgan ilmiy tadqiqotlar barcha uchun bepul bo‘lishi kerak, degan g‘oya asosida qurilgan.

“Ochiq ma’lumotlar” alohida atama sifatida esa birinchi marta 1995-yilda Amerika agentligining geofizik va atrof-muhit ma’lumotlarini ochiqlash bo‘yicha hisobotida keltirilgan. Ular bunday global hodisalarni yaxshiroq tahlil qilish va tushunish uchun xalqlar o‘rtasida ilmiy ma’lumotlarning to‘liq va ochiq almashinuvini xohlashgan[3].

2000-yillarning boshida butun dunyo hukumatlari o‘z ma’lumotlarini jamoatchilikka ochish tashabbuslarini faol ravishda davom ettira boshladilar. Ular ochiq ma’lumotlar salohiyatini innovatsiyalarni rag‘batlantirish, fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash va davlat organlari faoliyatining shaffofligini oshirish vositasi sifatida tan oldilar.

2007-yilda Kaliforniyaning Sebastopol shahrida bir guruh fikr yetakchilari ochiq ommaviy ma’lumotlar tushunchasini muhokama qilish va aniqlash uchun yig‘ilishgan.

2009-yilda prezidentlik faoliyatining dastlabki kunidayoq AQSH prezidenti Barak Obama Ochiqlik va ochiq hukumat to‘g‘risidagi memorandumni imzoladi. Bu esa Amerika Qo‘shma Shtatlari hukumatining keng ochiq ma’lumotlar portali -

data.gov paydo bo‘lishiga zamin yaratdi[3]. Portal o‘sha yilning may oyiga kelib ishga tushirildi. Oradan bir yil o‘tib, ya‘ni 2010-yili Buyuk Britaniya ham o‘zining data.gov.uk portalini ishga tushiradi[4]. Mazkur portalda ochiq hukumat ma‘lumotlarini topish va ulardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. 2018-yilga kelib esa sayt qayta loyihalashtirilib, unda “Ochiq ma‘lumotlarni topish” xizmati ishga tushiriladi.

2011-yilda hukumat rahbarlari va fuqarolik jamiyati yetakchilari shaffof, ishtirokchi, inklyuziv va hisobdor boshqaruvni ilgari surish maqsadida “Open Government Partnership” (ochiq hukumat hamkorligi)ga asos solishadi[3]. U 75ta mamlakat va 150ta mahalliy hukumatlarni o‘z ichiga oladi. Bu orqali ochiq hukumat tamoyillarini keng miqyosda qo‘llab-quvvatlagan holda ochiq ma‘lumotlarni chop etishni o‘z ichiga olgan doirani kengaytirish maqsad qilinadi[5].

Data.gov, Data.gov.uk kabi platformalarning paydo bo‘lishi bilan ochiq ma‘lumotlar auditoriya uchun keng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mazkur platformalar sog‘liqni saqlash, ta‘lim, transport, iqtisodiyot va boshqa sohalarga oid ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan millionlab ma‘lumotlar to‘plamiga kirish imkonini beradi.

Bugungi kunda ochiq ma‘lumotlar ilmiy tadqiqotlarda, shuningdek, jurnalistikada tahlil va surishtiruvlar o‘tkazishda faol foydalanilmoqda. Ilmiy tadqiqotchilar ko‘pincha o‘z farazlarini tasdiqlash, statistik tahlillar o‘tkazish va tibbiyot, ekologiya, sotsiologiya va iqtisodiyot kabi fanning turli sohalarida yangi bilimlarni olish uchun ochiq ma‘lumotlarga murojaat qilishadi.

Jurnalistlar ochiq ma‘lumotlardan jamiyat hayotining turli jabhalarini yaxshiroq tushunishga va asoslangan tushunchaga ega bo‘lishga yordam beradigan ma‘lumotlarni yaratish uchun foydalanadilar. Data jurnalistlar ochiq ma‘lumotlarni tahlil qilishadi, tendensiyalarni aniqlaydi va murakkab ma‘lumotlarni o‘quvchi uchun yanada oson va tushunarli ko‘rinishga keltiradi, ularni vizuallashtiradi.

Ochiq ma‘lumotlar bilan ishlashning standart sxemasi quyidagicha: ma‘lumotlarni izlash — qayta ishlash — vizuallashtirish — talqin qilish.

N.Makarova ochiq ma'lumotlar quyidagi mezonlarga javob berishi kerakligini ilgari suradi:

- kirishning ochiqligi — ontent bepul bo'lishi va mashina o'qiy oladigan shaklda nashr etilishi kerak. Ma'lumotlar nafaqat inson, balki kompyuter tomonidan ham tan olinishi va o'qilishi zarur;
- tarqatish va qayta foydalanish erkinligi — bu bepul litsenziyalardan foydalanishni nazarda tutadi;
- foydalanishni cheklashni taqiqlash[6].

Agar ma'lumotlar yuqoridagilarning birortasiga to'g'ri kelmasa, masalan, ma'lumotni qayta ishlash imkoni bo'lmasa, bunday ma'lumotlarni ochiq ma'lumotlar deya atash qiyin. Ochiq hukumat ma'lumotlari data jurnalistika uchun eng muhim omil hisoblanadi.

Yozuvchi Mark Tven ma'lumotlarni chiqindiga o'xshatgan. Uni to'plashdan oldin nima qilmoqchi ekaningizni bilishingiz kerak. Ya'ni ma'lumotlarni yig'ish o'ziga xos jarayon bo'lib, bu ma'lumotlardan qanday foydalanishni bilmasangiz, harakatingiz besamar kechadi.

Britaniyalik statistik Devid Shpigelxalterning fikricha, "ochiq ma'lumotlar, ma'lumotlar ilmi va ma'lumotlar jurnalistikasi davrida raqamlarda aks etuvchi bezaklarga aldanib qolmaslik uchun ham asosiy statistik tamoyillarga muhtojmiz". Hatto zamonaviy texnologiyalar va ma'lumotlar ochiqligi sharoitida ham, ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va raqamlarda ko'rinishi mumkin bo'lgan adashtiruvchi naqshlarga aldanib qolmaslik uchun statistika qoidalarini bilish va qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Ochiq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish hayotning istalgan sohasidagi tendensiyalarni kuzatishga, ma'lum bir qatlam, maqsadli auditoriya, umuman, odamlar qiziqishlarini o'rganishga imkon beradi. Data jurnalistikada ma'lumotlarni tekshirish va faktlarni o'rganish o'ziga yarasha vaqt va ko'nikma talab qilibgina qolmasdan, data-jurnalistdan holis bo'lishni ham so'raydi. Qolaversa, jurnalistning ochiq

ma'lumotlarga kirib borish imkoniyatining cheklanmaganligi ham data jurnalistika uchun muhim hodisadir.

O'zbekiston BMTning elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha 2022-yilgi global reytingida dunyoning 193 mamlakati orasida 69-o'rinni egalladi. Reytingning bundan oldingi, 2020-yilgi versiyasida mamlakat 87-o'rinni qayd etgandi. Mamlakatda onlayn xizmatlar sezilarli darajada yaxshilangani, davlat xizmatlarini ko'rsatishning "juda yuqori" darajasiga ega bo'lgan guruhga yaqinlashgani qayd etilgan. O'zbekistonning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (EGDI) ikki yil davomida 0,06 punktga ko'tarilib, 0,7265 ni tashkil etdi[7].

Mamlakat so'nggi yillarda ochiqlik siyosatini ilgari surmoqda. Ayniqsa, jurnalistlar uchun davlat tashkilotlaridan ma'lumot olish yanada yengillashdi. Ilgari jurnalistlar uchun eshiklarini yopib qo'ygan tashkilotlar bugun ommaviy axborot vositalari bilan faol ishlashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 7-avgustdagi "Ochiq ma'lumotlar taqdim etilishini hisobga olgan holda Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining hukumat portalini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 232-sonli qarori bilan mamlakatda Data.egov.uz porali ishga tushirilgan.

Portal davlat idoralarining turli sohalardagi ma'lumotlarini jamoatchilik foydalanishi uchun ochiq va shaffof tarzda taqdim etishga qaratilgan. U orqali fuqarolar, tahlilchilar, olimlar va biznes vakillari kerakli ma'lumotlarga tezkor va oson kirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Portalning asosiy vazifasi davlat boshqaruvi jarayonlarining ochiqligini ta'minlash va fuqarolarning davlat siyosatini shakllantirishdagi ishtirokini kuchaytirishdir.

Portalning asosiy sahifasida tashkilotlar, yangiliklar, monitoring, statistika, Sun'iy intellekt hamda eski ma'lumotlar bo'limlari joylashgan. Asosiy sahifada shuningdek, barcha sohalar bo'yicha alohida bo'limlar tashkil etilgan. Ularning har birida esa tegishli ma'lumotlar keltirilgan. Ularni xml, csv, json, xls va rdf formatlarida yuklab olish mumkin.

Data.egov.uz uchta tilda, o‘zbek, rus va ingliz tillarida faoliyat yuritadi. Portal asosiy va yordamchi bo‘limlardan iborat.

Asosiy bo‘limlarga quyidagilar kiradi:

- “Asosiy qism”: portalning mohiyatini va eng so‘nggi yangiliklarni taqdim etuvchi bosh sahifa;
- “Ishlab chiquvchilar”: ochiq ma’lumotlar to‘plamlarini mashina o‘qiy oladigan formatlarda taqdim etuvchi bo‘lim;
- “Yangiliklar”: davlat organlari tomonidan berilgan so‘nggi ma’lumotlar va yangiliklar;
- “Statistika”: davlat organlari haqidagi statistik ma’lumotlar;
- “Qonunchilik hujjatlari”: portal faoliyatiga oid qonunchilik asoslarini taqdim etuvchi bo‘lim.

Yordamchi bo‘lim esa quyidagilardan iborat:

- “Portal yangiliklari”: portal faoliyati va yangilanishlari haqida ma’lumotlar;
- “Ommaviy ma’lumotlar”: foydalanuvchilar orasida eng ko‘p qidirilgan ma’lumotlar;
- “Tashkilotlar”: ma’lumotlarni taqdim etuvchi tashkilotlar ro‘yxati;
- “Portal haqida”: portalning vazifalari va maqsadlari haqida ma’lumot;
- “Qayta aloqa”: foydalanuvchilardan qabul qilinadigan taklif va fikr-mulohazalar.
- “Axborotdan foydalanish shartlari”: ma’lumotlardan qanday qilib foydalanish mumkinligi haqida ko‘rsatmalar.

Bundan tashqari, Statistika agentligining stat.uz sayti ham ochiq ma’lumotlarni olishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-apreldagi “Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4273-sonli qarori bilan agentlik statistika qo‘mitasi shaklida, davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma’lumotlar to‘plamlari ro‘yxatini shakllantirish, yuritish va yangilash hamda tegishli ma’lumotlarni Ochiq ma’lumotlar

portalida joylashtirishini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan. 2022-yilga kelib, prezidentning tegishli Farmoniga muvofiq Statistika agentligi shaklida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuriga o‘tkazilgan.

O‘zbekiston 2022-yilgi “Open Data Inventory” (ODIN) ochiq ma’lumotlar reytingida 195ta mamlakat orasida 70 ball bilan 30-o‘ringa ko‘tarildi. Qolaversa, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 1-o‘rinni saqlab qoldi[8]. Umuman, ochiqlik davrida mamlakatning ijobiy natija qayd etishi, jurnalistlarning ham faoliyatida ijobiy o‘zgarishlar amalga oshishiga turtki beradi. Chunki ishonchli va rasmiy ma’lumotlarsiz data jurnalist axborotni o‘quvchiga uzata olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Open_data
2. <https://data.egov.uz/about-open-data>
3. <https://apolitical.co/solution-articles/en/open-data-101-the-history-and-principles-of-open-data-part-1>
4. <https://www.data.gov.uk/about>
5. <https://www.opengovpartnership.org/about/>
6. Макарова Н. Я. Журналистика данных в системе профессиональных компетенций журналиста / “Знак: проблемное поле медиаобразования”. 2020. № 4 (38)
7. <https://www.spot.uz/ru/2022/09/29/e-gov-survey/>
8. <https://kun.uz/news/2023/08/09/ozbekiston-ochiq-malumotlar-reytingida-30-oringa-kotarildi>